

## BOSHLANG'ICH SINIF ÓQUVCHILARNING ONA TILI MALAKALARINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

*Toliboyeva Durdona*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI ning Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang'ich sinf óquvchilarini ona tilin órgatish jarayonida interfaol metodlarning tutgan órni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit sózlar:** interfaol, interfaol ta'lim shakllari, metodlar, interfaol metodlar

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish bóyicha kópgina amaliy ishlar olib borilmoqda. Atab aytganda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan shu yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nom berilishi ham shu jumladandir. Ta'lim sifatini islohat qilish uchun, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan ózgartirish kerak. Ya'ni, bolalarni, yosh avlodni bolalar bog'chalariga kóbiroq jalb etish kerak. Shunda bolalarda boshlang'ich sinf uchun ham tuchunshalar paydo bóлади va har bir sohaga bólgan qiziqishi yana da ortib boradi. Shu jumladan, boshlang'ich sinf óquvchilarini ona tilin órgatish jarayonida, shu fanga oid metodlardan, qiziqarli óyinlardan, tarbiyaviy hosiyatga ega óyinlardan foydalansak bolalarda bilim va tarbiya teng rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf óquvchilariga ona tilini órgatishda interfaol metodlarning ham ahamiyati katta deb óy layman. Shunki, u hozirgi kunda qóllanilib kelayotgan zamonaviy ta'limga ham mos, ham xos bólib hisoblanadi. Birinchi navvatda interfaol sózining ma'nosiga to'q talib ó tadigan bólsam, "interfaol" ingliz tilidan "olingan bo'lib, "inter" - "o'zaro", "act" - "harakat qilmoq", "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" "o'zaro birga ish tutmoq" ma'nosini ifodalaydi. Interfaol ta'lim lotin tilidan olingan bólib "internus" ichki, o'zaro- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish yo'lidagi o'zaro hamkorlikdagi harakatga asoslangan ta'lim.

Interfaol metod - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida

yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish egalik asosida tashkil etiladi.

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars

samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, interfaol metodlar ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'quvchi, o'qituvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, yagona maqsad sari intilish hamda shaxsning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, interfaol metodlar o'quvchilarni faqatgina matematik bilimlarini rivojlantirib qolmasdan ularning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llashga ham yordam

beradigan metodlar hisoblanadi. Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz - sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelinmoqda.

Interfaol metodlar boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar

o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Bu o'qituvchi tomonidan berilayotgan mashqlar kóp vaqtni olmasligi kerak va oson, boshlang'ich sinf o'quvchisi tez tushinadigan mashqlar berilishi kerak. Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz-tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etilgan. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktil tahlil shu metodning amalda namoyon bólishidir. Sintez qismlarga bólib o'rganilgan grammatik materialni yaxlitlashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi sóz turkumlari o'rganilayotgan ularga oid sózlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan sózlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoya tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bóladi. Analiz-sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchilarni o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bóladi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol - topshiriqlariga bog'liq. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bolalarning ona tili faniga bólgan mehrini va qiziqishini orttirmoqda desak mubolağa bólmaudilar.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug` va kelajagi farovon bo`ladi. T.:“O`zbekiston”, 2019.
2. Yo`ldoshev J., Yo`ldosheva F., Yo`ldosheva G. Interfaol ta`lim - sifat kafolati. - Toshkent, 2008.
3. Muslimov, N., Usmonboeva, M., Sayfurov, D., & To`raev, A. (2015) Innovatsion ta`lim texnologiyalari. Sano-standart.